

PHILIPS

AC1715



Foydalanuvchi qo'llanmasi

Mundarija

1	Muhim	2
	Xavfsizlik	2
	Elektromagnit maydonlar (EMF)	4
	Qayta ishlash	4
	Soddalashtirilgan YI muvofiqlik deklaratsiyasi	4
2	Havo tozalagichingiz	5
	Mahsulot sharxi	5
	Tugmalar sharhi	6
3	Boshlash	7
	Filtrni o'rnatish	7
	Wi-Fi indikatorini tushunish	7
	Quvvatni ulash	8
	Wi-Fi ulanish	8
4	Havo tozalagichdan foydalanish	9
	Havo sifati chirog'i haqida	9
	Yoqish va o'chirish	10
	Rejim sozlamasini o'zgartirish	11
	Display indikatorini almashtirish	12
	Chiroqni yoqish/o'chirish funksiyasidan foydalanish	12
5	Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish	13
	Tozalash jadvali	13
	Havo tozalagichning korpusini tozalash	13
	Zarralar datchigini tozalash	14
	Filtrning sirtini tozalash	14
	Filtrni almashtirish	15
	Filtrni qayta o'rnatish	17
6	Saqlash	17
7	Nosozliklarni aniqlash	18
8	Kafolat va servis	21
	Buyurtma beriladigan qismlar va aksessuarlar	21

1 Muhim

Xavfsizlik

Jihozdan foydalanishdan oldin foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqing va keyinchalik ma'lumot uchun saqlab qo'ying.

Eng yuqori samaradorlik uchun havo tozalagichni eng so'nggi versiyagacha yangilang. Bunday yangilanishni Clean Home+ ilovasi orqali amalga oshirishingiz mumkin.

Xavf

- Tok urishi va/yoki yong'in xavfining oldini olish uchun jihozni suv, har qanday suyuqlik yoki (yonuvchan) yuvish vositasi bilan yuvvmang yoki ularning jihozga kirishiga imkon bermang.
- Jihozning atrofida yonuvchan materiallar, masalan, insektitsidlar yoki xushbo'y moddalar sepmang.

Ogohlantirish

- Jihozni ulashdan oldin namunaviy tablichkada ko'rsatilgan kuchlanish mahalliy tarmoq kuchlanishiga mos kelishini tekshiring.
- Agar quvvat shnuri shikastlangan bo'lsa, uni Philips kompaniyasi, Philips tomonidan vakolat berilgan servis markazi yoki shu kabi malakali mutaxassislar almashtirishi kerak.
- Agar vilka, tarmoq shnuri yoki jihozning o'zi shikastlangan bo'lsa, jihozdan foydalanmang.
- Bu jihozdan xavfsiz foydalanish bo'yicha ko'rsatma berilgan yoki xavfsiz foydalanish uchun kuzatuv ostida bo'lsa va unga bog'liq xatarlardan xabardor bo'lsa, 8 yosh va undan katta yoshdagilar va jismoniy, sezgi yoki ruhiy qobiliyati cheklangan yoki tajribasiz va tushunchaga ega bo'limgan odamlar ham foydalanishi mumkin.
- Bolalar jihoz bilan o'ynashiga yo'l qo'y mang.
- Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish kuzatuv ostida bo'limgan bolalar tomonidan amalga oshirilishi taqiqlanadi.
- Havo chiqarish teshigi yoki havo olish teshigining oldiga predmetlarni qo'yish orqali havo olish va chiqarish teshigini to'sib qo'y mang.

- Havo chiqarish teshigi orqali begona jismlar jihozga tushib qolmasligini tekshiring.
- Standart Wi-Fi xalaqiti 31,62 mV EIRP maksimal chiqarish quvvati bilan 2.4 Gs 802.11b/g/n rejimiga asoslanadi.

Diqqat

- Bu jihoz tegishli shamollatish, muntazam changyutkichda tozalash yoki ovqat tayyorlashda dudbo'ron yoki ventilyator sifatida ishlatishga mo'ljallanmagan.
- Doim jihozni quruq, barqaror, tekis va gorizontal sirtga joylang va foydalaning.
- Jihozning atrofida kamida 20 sm va uning yuqorisida kamida 30 sm bo'sh joy qoldiring.
- Jihozni ustiga o'tirmang yoki uning ustida turmang. Jihozning ustiga hech narsa qo'y mang.
- Jihozga kondensatsiya to'kilishining oldini olish uchun uni konditionerning ostiga joylamang.
- Faqat bu jihoz uchun mo'ljallangan asl Philips filtrlaridan foydalaning. Boshqa filtrlardan foydalanmang.
- Filtrning yonishi insonga juda yomon ta'sir ko'rsatishi va/yoki boshqalarning hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Filtrdan yonilg'i yoki boshqa maqsadda foydalanmang.
- Jihozga (ayniqsa, havo olish va havo chiqarish teshiklariga) qattiq jismlar bilan urmang.
- Jismoniy jarohatlanish yoki jihozning ishdan chiqishining oldini olish uchun barmoq yoki boshqa obyektlarni havo chiqarish va havo olish teshigiga kiritmang.
- Jihozni uyda hasharotlarni qochiradigan tutunli vositalar qo'llanganda yoki moyli qoldiqlar, yonayotgan chiqindilar yoki kimyoiy bug'lar bo'lgan joyda ishlatmang.
- Jihozni gaz bilan ishlaydigan jihozlar, isitish qurilmalari yoki o'choqlar yaqinida ishlatmang.
- Jihozni surish, uni tozalash, filtrni almashtirish yoki boshqa xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishda uni rozetkadan uzib qo'ying.
- Jihoz uyda normal ish sharoitida ishlatishga mo'ljallangan.

- Jihoz nam sirtlar yoki namlik darajasi yuqori yoki tashqi harorati yuqori bo'lgan joylar, masalan, hammom, hojatxona, oshxona yoki harorat keskin o'zgaradigan joylarda ishlatalishga mo'ljallanmagan.
- Jihoz is gazi (CO) yoki radonni (Rn) tozalamaydi. Bu jihozdan yong'in jarayoni va zararli kimyoviy hodisalar bilan baxtsiz hodisalarda havfsizlik qurilmasi sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Elektromagnit maydonlar (EMF)

Bu Philips jihizi elektromagnit maydonlarning ta'siri bo'yicha barcha amaldagi standart va me'yorlarga javob beradi.

Qayta ishslash

Bu belgi mahsulotning odatiy maishiy chiqindilar bilan tashlanmasligi zarurligini bildiradi (2012/19/EU).



Mamlakatingizning elektr va elektron qurilmalarni alohida to'plashga oid qoidalariiga amal qiling. To'g'ri utilizatsiya qilish atrof-muhit va insonlar salomatligiga salbiy oqibatlarning oldini olishda yordam beradi.

Soddalashtirilgan YI muvofiqlik deklaratsiyasi


Bunda DAP B.V. ma'lum qiladiki, AC1715 turidagi radio qurilma 2014/53/EU direktivasiga muvofiq keladi. Yevropa Ittifoqining muvofiqlik deklaratsiyasining to'liq matni quyidagi internet manzilida mavjud: www.philips.com.

2 Havo tozalagichingiz

Xaridingiz muborak bo'lsin va Philips'ga xush kelibsiz!


Philips taklif qiladigan qo'llab-quvvatlash xizmatidan foydalanish uchun jihozingizni quyidagi saytda ro'yxatdan o'tkazing: www.philips.com/welcome.

Mahsulot sharxi



*Faqat taqdim etilgan vilka adapteridan
foydalaning

Tugmalar sharhi



Boshqaruv tugmalari

💡	Chiroqni yoqish/o'chirish tugmasi	⚡	Quvvatni yoqish/o'chirish tugmasi
⟳	Rejimni almashtirish tugmasi		

Display paneli


Wi-Fi	Wi-Fi indikatori	Ⓐ	Avto rejim
⚡	1-tezlik	🌀	2-tezlik
🌀	Turbo rejimi	🌙	Uyqu rejimi
PM2.5	PM2.5 display	IAI	Xona allergen indeksi displayi
FilterWhere	Filtrni tozalash signali	FilterWhere	Filtrni almashtirish signali

3 Boshlash

Filtrni o'rnatish

Dastlabki foylanishdan oldin filtrning barcha qadoqlarini olib tashlang.

Eslatma: Filtrni o'rnatishdan oldin havo tozalagich elektr rozetkasidan uzilgan bo'lsin.



- 1 Orqa qoplamani torting va jihozdan olib tashlang.
- 2 Filtrni jihozdan tortib oling.
- 3 Havo tozalash filtrining barcha qadoqlash materiallarini olib tashlang.
- 4 Filtrni jihozga qaytarib qo'ying.
- 5 Orqa qoplamani qayta o'rnating.

Wi-Fi indikatorini tushunish


Wi-Fi belgisi holati	Wi-Fi ulanish holati
To'q sariq rangda o'chib-yonadi	Smartfonga ulanmoqda
Barqaror to'q sariq	Smartfonga ulangan
Oq rangda o'chib-yonadi	Serverga ulanmoqda
Barqaror oq	Serverga ulangan
O'chiq	Wi-Fi funksiyasi faolsizlantirilgan

Quvvatni ularsh

Eslatma: Elektr toki urishi xavfi! O'zgaruvchan tok quvvat shnurini uzganda vilkani rozetkada qolmasin. Aslo shnurdan tortmang.

Quvvat adapterini quyidagilarga ulang:

- Dastlab, jihozdagi quvvat rozetkasi.
- So'ngra, devor rozetkasi.



Wi-Fi ulanish

Birinchi marta Wi-Fi ulanishini sozlash

- 1 App Store yoki Google Play dasturlaridan Philips "Clean Home+" ilovasini yuklab oling va o'rnatting.
- 2 Havo tozalagichni yoqish uchun uning vilkasini quvvat rozetkasiga ulang va Ötugmasini bosing.
↳ Birinchi ishlatganda Wi-Fi indikatori to'q sariq rangda yonib-o'chib turadi.
- 3 Smartfon yoki planshetingiz Wi-Fi tarmoqqa muvaffaqiyatli ulanganini tekshiring.
- 4 "Clean Home+" ilovasini ishga tushiring va "Yangi qurilmani ularsh" tugmasi yoki ekranning yuqorisidagi "+" tugmasini bosing. Havo tozalagichni tarmog'ingizga ularsh uchun ekran ko'rsatmalariga amal qiling.



Eslatma:

- Havo tozalagich birinchi marta sozlanayotgan bo'lsa, bu ko'rsatmalar amal qilish mumkin. Agar tarmoq o'zgargan bo'lsa yoki qayta sozlash zarur bo'lsa, "Wi-Fi ulanishni asliga qaytarish" 9-betda bo'limiga qarang.
- Agar smartfon yoki planshetingizga birdan ortiq havo tozalagichni ularshni istasangiz, buni ketma-ket qilishingiz kerak.
- Smartfon yoki planshetingiz va havo tozalagich orasidagi masofa hech qanday to'siqlarsiz 10 m bo'lishini tekshiring.
- Bu ilova Android va iOS dasturiy ta'minotining eng so'nggi versiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Qo'llab-quvvatlanadigan operatsion tizimlar va qurilmalarning eng so'nggi yangilanishlari uchun www.philips.com/cleanhome manzilini tekshiring.

Wi-Fi ullanishni asliga qaytarish

Eslatma:

- Standart tarmog'ingiz o'zgarganda Wi-Fi ullanishni asliga qaytaring.
- Havo tozalagichni yoqish uchun uning vilkasini quvvat rozetkasiga ulang va ⚡ tugmasini bosing.
 - Signalni eshitguningizcha ⏺ tugmasini 3 soniya davomida bosib turing.
 - ↳ Havo tozalagich juftlash rejimiga o'tadi.
 - ↳ Wi-Fi indikatori 🌐 to'q sariq rangda yonib-o'chadi.
 - "**Birinchi marta Wi-Fi ullanishini sozlash**" bo'limida berilgan 3-4-bosqichlarga amal qiling.

4 Havo tozalagichdan foydalanish

Havo sifati chirog'i haqida

Jihoz yoqilganda havo sifati chirog'i avtomatik yoqiladi va ketma-ketlikda barcha ranglarda yonadi. Taxminan 30 soniyadan keyin zarralar datchigi havodagi zarralarning havo sifatiga mos keladigan rangni tanlaydi.

Havo sifati rangi PM2.5 va IAI ko'rsatkichlari orasida eng yuqori indeksi bilan aniqlanadi.

Havo sifati chirog'inining rangi	Havo sifati darajasi
Ko'k	Yaxshi
Ko'k-qirmizi	Qoniqarli
Qirmizi-qizil	Yomon
Qizil	Juda yomon

PM2.5

AeraSense datchik texnologiyasi havodagi kichik zarra o'zgarishini ham aniqlaydi va tezkor javob beradi. U sizga real vaqtidagi ishonchlilik bilan PM2.5 natijasini beradi.

Ko'pchilik havo ifloslantiruvchilar PM2.5 darajadan past bo'ladi – bunga 2,5 mikrometr dan kichikroq havodagi ifloslantiruvchilar kiradi. Mayda zarralarning asosiy ichki manbalari sigaret tutuni, ovqat pishirish, sham yoqish hisoblanadi. Ayrim havodagi bakteriyalar va eng kichik mog'or sporalari, hayvonlarning allergenlari va chang zarra allergenlari ham PM2.5 darajaga kiritiladi.

PM2.5 daraja	Havo sifati chirog'inining rangi
≤12	Ko'k
13-35	Ko'k-qirmizi
36-55	Qirmizi-qizil
>55	Qizil

IAI

Professional darajadagi **AeraSense** datchigi ichki havo allergenlar darajasini aniqlaydi va ichki havo allergenlari ko'rinishi mumkin bo'lgan 1 dan 12 gacha potensial xavf darajasini raqamli ko'rsatkichda ifodalaydi. 1 eng yaxshi havo sifatini ko'rsatadi.

IAI darajasi	Havo sifati chirog'ining rangi
1-3	Ko'k
4-6	Ko'k-qirmizi
7-9	Qirmizi-qizil
10-12	Qizil

Yoqish va o'chirish

Eslatma:

- Optimal tozalash samaradorligi uchun eshik va oynalarni yoping.
- Pardalarni havo olish yoki havo chiqarish teshigidan uzoqda saqlang.

- 1 Havo tozalagich vilkasini devor rozetkasiga ulang.
- 2 Havo tozalagichni yokish uchun  tugmasiga teging.
 - ↳ Havo tozalagich signal chaladi.
 - ↳ Qizib olish vaqtida ekranda “---” ko'rsatiladi. Havo sifatini o'lchagandan keyin havo tozalagich PM2.5/IAI darajasini ko'rsatadi.
 - ↳ Ekranda IAI ko'rsatilib, havo tozalagich avtomatik rejimda ishlaydi.
- 3 Havo tozalagichni o'chirish uchun  tugmasini 3 soniya bosib turing.

Eslatma: Agar tozalagich O'CHIRILGANDAN keyin elektr rozetkasiga ulangan holatda bo'lsa, tozalagich qayta YOQILGANDA avvalgi sozlamada ishlashni boshlaydi.



Rejim sozlamasini o'zgartirish

⌚ tugmasini bosib, Avto rejimi, 1-tezlik, 2-tezlik, Turbo rejimi yoki Uyqu rejimini tanlashingiz mumkin.



Avto rejimi (Ⓐ): Havo tozalagich tashqi havo sifatiga asoslanib, ventilator tezligini avtomatik sozlaydi.



Qo'lda rejimi tezligi (⚡ & ⚡): Qo'lda rejimida havo tozalagich 1 yoki 2 tezlikda ishlaydi.



Turbo rejimi (⚡): Turbo rejimida havo tozalagich eng yuqori tezlikda ishlaydi.




Uyqu rejimi (🌙): Havo tozalagich past tezlikda sokin ishlaydi. 3 soniyadan keyin ekran chiroqlari o'chadi.


Display indikatorini almashtirish

Eslatma: Standartga ko'ra, jihoz displayi PM2.5 darajada bo'ladi.

- Display indikatorini IAI /PM2.5 lardan biriga almashtirish uchun ⏹ tugmasini 3 soniya bosib turing.



Chiroqni yoqish/o'chirish funksiyasidan foydalanish



Chiroq datchigi bilan tashqi muhit chirog'iga qarab, boshqaruv paneli avtomatik yonadi, yochadi yoki qorong'ilashadi. Tashqi muhit qorong'i bo'lsa, boshqaruv paneli o'chadi yoki qorong'ilashadi. Barcha chiroqlarni uyg'otish uchun biror tugmani bosing. Keyin biror amal bajarilmasa, tashqi haroratga mos kelishi uchun barcha chiroqlar o'chadi yoki qorong'ilashadi.

Barcha chiroqlar va boshqaruv panelini qo'lda o'chirish uchun ⏹ tugmasini bosishingiz mumkin. Barcha chiroqlarni uyg'otish uchun biror tugmani bosing.

5 Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish

Eslatma:

- Tozalashdan oldin jihozni tokdan uzing.
- Jihozni aslo suv yoki boshqa suyuqlikka solmang.
- Jihozning biror qismini tozalash uchun hech qachon abraziv, agressiv yoki yonuvchan tozalash vositalari, masalan, oqartirgich yoki spirtdan foydalanmang.
- Filtrni tozalash uchun birorta suyuqlikdan (jumladan, suv) aslo foydalanmang.
- Zarralar datchigini changyutkich bilan tozalashga harakat qilmang.

Tozalash jadvali

Chastotasi	Tozalash usuli
Zarurat bo'lganda	Jihozning plastik qismini yumshoq, quruq mato bilan arting
	Havo olish qoplamasini tozalash
Har ikki oy	Zarralar datchigini quruq paxta mato bilan tozalang
■■■ ekranda ko'rsatiladi.	Filtrning sirtini tozalash

Havo tozalagichning korpusini tozalash

Chang to'planishining oldini olish uchun havo tozalagichning ichki va tashqi qismini muntazam tozalang.


- Havo tozalagichning ichi va tashqarisini hamda havo olish teshigini tozalash uchun yumshoq, quruq matodan foydalaning.

Zarralar datchigini tozalash

Jihozning optimal ishlashini ta'minlash uchun zarralar datchigini har 2 oyda tozalab turing.


Eslatma:

- Agar havo tozalagich chang muhitda ishlatsa, u yanada ko'proq tozalanishi mumkin.
- Agar xonadagi namlik darajasi juda yuqori bo'lsa, zarralar datchigida kondensatsiya to'planishi va havo sifati aslida yaxshi bo'lsa ham, yomon havo sifatini ko'rsatishi mumkin. Agar shunday bo'lsa, zarralar datchigini tozalang.




- 1 Havo tozalagichni o'chiring va quvvat rozetkasidan izing.
- 2 Havo sifati datchigi qoplamasini oching.
- 3 Zarralar datchigini nam paxta mato bilan tozalang.
- 4 Quruq paxta mato bilan barcha qismlarni tozalang.
- 5 Havo sifati datchigini yoping.

Filtrning sirtini tozalash



Filtrning ogohlantirish chirog'i holati	Harakat
Filtrni tozalash signali ekranda aks etadi.	Filtrning sirtini changyutkich bilan tozalang.

1 Havo tozalagichni o'chiring va quvvat rozetkasidan uzing.



2 Orqa qoplamani torting va jihozdan olib tashlang.

3 Filtrni jihozdan tortib oling.

4 Filtrning sirtini changyutkich bilan tozalang.

5 Filtrni jihozga qaytarib qo'ying.


6 Orqa qoplamani qayta o'rnatung.

7 Havo tozalagich vilkasini devor rozetkasiga ulang.

8 Jihozni yoqish uchun ⏪ tugmasini bosing.

9 Birlamchi filtrni tozalash vaqtini tiklash uchun ☰ va ☰ tugmalarini 3 soniya bosib turing.

10 Filtrni tozalagandan keyin qo'llaringizni yaxshilab yuvung.



Filtrni almashtirish

Salomatlikni himoyalash qulfi haqida tushuncha


Bu havo tozalagich ishlayotganida havo tozalash filtri optimal holatdaligini ta'minlash uchun filtrni almashtirish indikatori bilan jihozlangan. Filtrni almashtirish zarur bo'lsa, filtrni almashtirish signali ☱ chirog'i yonadi.

Agar filtr vaqtida almashtirilmasa, havo tozalagich ishlashdan to'xtaydi va xonada havo sifatini himoya qilish uchun avtomatik qulflanib qoladi. Filtrni imkonli boricha tezroq almashtiring.

Filtrni almashtirish


Eslatma:

- Bu filtrni yuvib bo'lmaydi yoki qayta ishlatalmaydi.
- Filtrlarni almashtirishda doim havo tozalagichni o'chiring va elektr rozetkasidan uzib qo'ying.



Filtrning ogohlantirish chirog'i holati	Harakat
Filtrni almashtirish signali  yonadi	NanoProtect filtrini (FY1700/30) almashtiring

1 Havo tozalagichni o'chiring va quvvat rozetkasidan uzing.



2 Orqa qoplamani torting va jihozdan olib tashlang.

3 Filtrni jihozdan tortib oling.

4 Yangi filtrning barcha qadoqlash materiallarini olib tashlang.

5 Yangi filtrni jihozga qo'ying.

6 Orqa qoplamani qayta o'rnatting.


7 Havo tozalagich vilkasini devor rozetkasiga ulang.

8 Jihozni yoqish uchun  tugmasini bosing.

9 Filtrning xizmat muddati hisoblagichini asliga tiklash uchun  va  tugmasini 3 soniya bosib turing.

10 Filtrni almashtirgandan keyin q'llaringizni yaxshilab yuvинг.


Eslatma: Filtrni hidlamang, chunki unda havodagi ifloslantiruvchilar to'plangan bo'ladi.



Filtrni qayta o'rnatish

Filtrni almashtirish signali () ekranda paydo bo'lishidan oldin uni almashtirishingiz mumkin. Filtrni almashtirgandan keyin filtrning xizmat muddati hisoblagichni qo'lida qayta o'rnatishingiz kerak.

- 1 Jihozni o'chirish uchun 3 soniya quvvat  tugmasini bosib turing va quvvat rozetkasidan izing.



- 2 Quvvat vilkasini quvvat rozetkasiga ulang.
- 3 Yoqilgandan keyin 15 soniya ichida filtrning xizmat muddati hisoblagichini tiklash uchun  va  tugmasini 3 soniya davomida bosib turing.

6 Saqlash

- 1 Havo tozalagichni o'chiring va quvvat rozetkasidan izing.
- 2 Havo tozalagich, zarralar datchigi va filtrning sirtini tozalang ("Tozalash va texnik xizmat" bobiga qarang).
- 3 Saqlashdan oldin barcha qismlarni yaxshilab quriting.
- 4 Filtrni zinch plastik xatalarga o'rang.
- 5 Havo tozalagich, filtrni sovuq, quruq joyda saqlang.
- 6 Filtrni ishlatgandan keyin qo'llaringizni yaxshilab yuvинг.

7 Nosozliklarni aniqlash

Bu bobda jihozda uchraydigan eng keng tarqalgan muammolarni umumlashtirilgan. Agar quyidagi ma'lumotlarga asosan muammoni hal eta olmasangiz, mamlakatingizdagi Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.

Muammo	Ehtimoliy yechim
Jihozni yaxshilab tozalang.	<ul style="list-style-type: none">Filtrni almashtirish signali muntazam yoniq, lekin tegishli filtrni almashtirmagansiz. Natijada jihoz qulflangan. Bunday holatda filtrning xizmat muddati hisoblagichini tiklash uchun ⚡ va ⚡ tugmalarini uzoq bosib turing.
Havo chiqarish teshigidan chiqadigan havo oldingidan qisman kuchsizroq.	<ul style="list-style-type: none">Filtrning sirti ifloslangan. Filtrning sirtini tozalang ("Tozalash va texnik xizmat" bobiga qarang).
Havo tozalagich uzoq muddat ishlasa ham, havo sifati yaxshilanmaydi.	<ul style="list-style-type: none">Filtrlardagi barcha qadoqlash materiallarini olib tashlaganingizni tekshiring.Filtr jihozga qo'yilmagan. (FY1700/30) filtr to'g'ri o'rnatilganini tekshiring.Zarralar datchigi nam. Xonangizdagi namlik darajasi yuqori va kondensatsiyaga sabab bo'lmoqda. Zarralar datchigi toza va quruqligini tekshiring ("Tozalash va texnik xizmat" bobiga qarang).Xona o'lchami katta yoki tashqaridagi havo sifati yomon. Optimal tozalash samaradorligi uchun havo tozalagich ishlayotganda oldin eshik va oynalarni yoping.Ichkarida havoni ifoslantiruvchi manbalar bor. Masalan, chekish, ovqat pishirish, tutatqi, atir yoki spirt.Filtrning xizmat muddati tugamoqda. Filtrni yangisi bilan almashtiring.

Muammo	Ehtimoliy yechim
Havo sifati chirog'i har doim bir xil holatda turadi.	<ul style="list-style-type: none"> Zarralar datchigi iflos. Zarralar datchigini tozalang ("Tozalash va texnik xizmat" bobiga qarang).
Jihozdan yoqimsiz hid chiqmoqda.	<ul style="list-style-type: none"> Jihozdan birinchi marta foydalanganingizda undan plastikning isi kelishi mumkin. Bu normal holat. Biroq, agar filtrlarni olib tashlashda jihozdan kuygan hid chiqsa, Philips dileri yoki vakolatli Philips servis markazi bilan bog'laning. Filtr ichki gazlarni yutgani sababli ishlatilgandan keyin hid chiqarishi mumkin. Takroran ishlatish uchun filtrni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlariga qo'yish orqali uni qayta faollashtirish tavsija etiladi. Agar hid ketmasa, uni almashtiring.
Jihoz juda baland tovushda ishlaydi.	<ul style="list-style-type: none"> Jihoz Turbo rejimida ishlashi normal holat. Avto rejimida jihoz juda shovqinli bo'lса, havo sifati yomonlashgani sababli jihoz yuqori tezlikda ishlashi mumkin yoki llovadagi maxsus sozlamangiz yuqoririq ventilyator tezligini ishga tushirishi mumkin. Uyqu rejimini tanlashingiz yoki llovada sozlamalarni o'zgartirishingiz mumkin. Agar noodatiy tovush chiqsa, mamlakatingizdagи Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning. Agar havo olish teshigiga nimadir tushib ketsa, noodatiy tovush chiqarishi mumkin. Begona jismlarni jihozdan chiqarib tashlash uchun jihozni zudlik bilan o'chiring, teskari qo'ying.
Filtrni almashtirsam ham, jihoz uni almashtirishim zarurligini ko'rsatib turibdi.	<ul style="list-style-type: none"> Filtrning xizmat muddati hisoblagichini tiklamagan bo'lishingiz mumkin. Jihozni yoqing. ☎ va ⓧ tugmalarini 3 soniya davomida bosib turing.
Ekranda "E1" xato kodi ko'rsatiladi.	<ul style="list-style-type: none"> Motorda nosozliklar mavjud. Mamlakatingizdagи Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.

Muammo	Ehtimoliy yechim
Wi-Fi sozlamasi bajarilmadi.	<ul style="list-style-type: none">• Havo tozalagichingiz ulagan router ikkitalik chastotali bo'lsa va 2,4 Gs tarmoqqa ulanmagan bo'lsa, routerning boshqa chastotasiga (2,4 Gs) o'ting va havo tozalagichni qayta juftlashga harakat qilib ko'ring. 5 Gs tarmoqlar qo'llab-quvvatlanmaydi.• Veb-autentifikatsiya tarmoqlari qo'llab-quvvatlanmaydi.• Havo tozalagich Wi-Fi routerining diapazonidaligini tekshiring. Havo tozalagichni Wi-Fi routerga yaqinroq joylashga harakat qilib ko'ring.• Tarmoq nomi to'g'rilingini tekshiring. Tarmoq nomi katta-kichik harflarga qaraydi.• Wi-Fi paroli to'g'rilingini tekshiring. Parol katta-kichik harflarga qaraydi.• "Wi-Fi ulanishni asliga qaytarish" bo'limidagi ko'rsatmalarga asosan sozlab ko'ring.• Wi-Fi ulanishiga elektromagnit yoki boshqa xalaqitlar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalaqitlarga sabab bo'luvchi elektron qurilmalardan jihozni uzoqroq saqlang.• Mobil qurilmalar parvoz rejimdaligini tekshiring. Wi-Fi tarmoqqa ulanishda parvoz rejimi faolsizlantirilganini tekshiring.• Keng doiradagi va yangi nosozliklarni aniqlash maslahatlari uchun llovdagi yordam bo'limiga qarang.

8 Kafolat va servis

Agar sizga ma'lumot zarur bo'lsa yoki muammongiz bo'lsa, Philips kompaniyasining www.philips.com veb-saytiga kiring yoki mamlakatingizdagi Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning (global kafolat risolasidan telefon raqamini oling). Agar mamlakatingizda Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bo'lmasa, mahalliy Philips dileri bilan bog'laning.

Buyurtma beriladigan qismlar va aksessuarlar

Agar biror qismni almashtirish yoki qo'shimcha qismni xarid qilishni istasangiz, Philips dileri bilan www.philips.com/support manzili orqali bog'laning.

Qismlarni olish bo'yicha muammolaringiz bo'lsa, mamlakatingizdagi Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning (global kafolat risolasidan telefon raqamini oling).



© 2021 Philips Domestic Appliances Holding B.V.
Barcha huquqlar himoyalangan.

AC1715_user manual_v1.0 (10/12/2021)

